

YANGI O‘ZBEKISTON- YANGICHA BOSHQARUV, YANGICHA STRATEGIYA VA YANGI IMKONIYATLAR

TDPU Tarix fakulteti 2-kurs

201-talabasi

Siddiqov Husan

Ilmiy rahbar:t.f.d.dots

F.O.Ismatullayev

Annotatsiya: *Ushbu maqola, Yangi O‘zbekiston- yangicha boshqaruv, yangicha strategiya va yangi imkoniyatlar borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning amalyotga tadbiri qisqacha yoritilib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda qiyosiy taqqoslash holatlari qisqacha bo‘lsada kuzatilgan.*

Kalit so‘zlar : *Yangi O‘zbekiston, strategiya, valyuta, qora bozor, imkoniyatlar, yangicha dunyoqarash, qonun ustuvorligi, erkinlik, imkoniyatlar, islohotlar.*

Bugun O'zbekiston o'z mustaqil taraqqiyotining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu yo'lda u jahonning ko'plab mamlakatlari va yirik xalqaro tashkilotlari bilan turli sohalarda samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xususan, xorijiy davlatlar bilan do'stona hamda o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida muhim natijalarga erishilyapti. Davlatimiz rahbari bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyoning farovonligi uchun jon kuydirayotgan, mintaqani sanoati rivojlangan, obod va dunyo bilan keng integratsiyalashgan hududga aylantirish orzusi bilan yashab, shunga monand mehnat qilayotgan yetakchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qisqa davr ichida O'zbekiston xalqi mamlakatimizning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga asos bo'luvchi ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Shunga monand ravishda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan islohotlar va modernizatsiya jarayoni, jumladan, qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash bo'yicha siyosatni dunyo hamjamiyati e'tirof etmoqda. Misol tariqasida 2017-yil 19-sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida mamlakatimiz va xalqimiz hayotini tubdan yangilash, jamiyatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishga qaratilgan islohatlarni boshlaganimiz xususidagi ma'ruzamdanda so'ng menga bu haqida ko'plab savollar bilan murojaat qila boshlashdi. Ularning orasida „Yangi O‘zbekiston“ tushunchasi nimani anglatadi?, „Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega?, „Jamiyatning yangi qiyofasi“ deganda nimalar nazarda tutilmoqda?“ kabi savollar alohida e'tiborni jalb qiladi.

Yangi O'zbekiston iborasida haqida to'xtalganda, eng avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash ko'z oldimizda gavdalanadi. O'tgan besh yilda bu borada qilingan ishlarni sanab adog'iga yetolmaysiz. endi ko'p yillardan buyon odamlarni qiynab kelgan elektron kartochkadagi pullarni bankomatlar orqali naqd pulga aylantirish, milliy valyuta kursining “qora bozor”da — bir xil, banklarda esa boshqacha bo'lishi, xorijiy

valyutalarni sotib olish, fuqarolikka ega bo'lish, O'zbekistonning istalgan hududidan uy-joy va mol-mulk sotib olish hamda ularni ro'yxatga qo'yish bilan bog'liq qator muammolar

tarixda qoldi. So'nggi besh yilda davlatimiz rahbarining mustahkam siyosiy irodasi tufayli tadbirkorlar o'z biznesini rivojlantirish uchun erkinlik va yangi-yangi imkoniyatlarga ega bo'lmoqda, dehqon va fermerlar, klaster xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan hosilning haqiqiy egasiga aylanmoqda. Bularning barchasi Prezidentimizning Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida tun-u kun tinim bilmasdan, bor bilim va tajriba, kuch va imkoniyatlarini safarbar etayotgani hamda bu jarayon tobora kuchayib, yangi sifat bosqichiga ko'tarilib borayotganidan dalolat beradi.

Shu ma'noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan “Yangi O'zbekiston” g'oyasi zamirida ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo'lamiz. Albatta, 35 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan, o'tgan davrda ko'plab muammolar to'planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to'g'ri yo'l tanlash – bu davlat rahbaridan ulkan aql-zakovat, bilim va tajriba, mustahkam iroda, jasorat va azm-u shijoatni talab etadi. Ayni vaqtda tanlangan rivojlanish yo'lini ijtimoiy institutlar, ta'sirchan mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etish, odamlarni islohotlarning maqsadi va natijasiga ishontirish, butun jamiyatni ruhlantirib, ulug' maqsadlar sari safarbar eta olish – yanada murakkab vazifa, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi. Yangi O'zbekiston davlati besh konstitutsiyaviy belgi asosida, ya'ni suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat deb e'lon qilinib, inson qadrini yanada ulug'lash va “inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha davlatning konstitutsiyaviy majburiyatlari alohida muhrlab qo'yildi. Bosh qomusimizda inson huquqlari kafolatlariga oid normalar 3 barobar ko'paytirildi. Yurtimizda majburiy mehnat va bolalar mehnatiga barham berish, ayniqsa, ta'lim tizimi xodimlarini o'z xizmat vazifalari bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish hollariga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan qonun hujjatlarini hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar negizida avvalo, xalqimizning farovon turmush tarzini yaratish, jahon hamjamiyatida Yangi O'zbekistonning nufuzini oshirish singari ustuvor vazifalar turganini inkor qilib bo'lmaydi. Yurtimizda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilib, bu orqali har bir muhtoj insonga uning ehtiyojini hisobga olgan holda yordam ko'rsatilmoqda. Endilikda ijtimoiy himoya tizimida saqlanib qolayotgan ayrim kamchilik va nuqsonlar bosqichma-bosqich bartaraf etiladi. Ushbu tizimni takomillashtirib, yaxshi natija beradigan, jamiyatdagi barcha sog'lom kuchlarni shu maqsad atrofida birlashtiradigan darajaga yetkaziladi. Bundan ko'rinib turibdiki, muhtoj fuqarolarni to'g'ridan-to'g'ri, aniq maqsad bilan moddiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor aholining kam ta'minlangan qatlamlariga dotatsiya berish emas, balki ularga daromad topish uchun zarur sharoit va imkoniyatlar tug'dirishga qaratilmoqda.

Albatta “Yangi O'zbekiston” g'oyasi o'z-o'zidan, yo'q joyda paydo bo'lib qolmadi. Bu g'oya tarixiy zarurat, ehtiyoj hosilasi bo'ldi. Prezidentimiz so'zlari bilan aytganimizda, “Yangi O'zbekistonni barpo etish — bu shunchaki xohish-istak, sub'ektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy,

ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan ob'ektiv zaruratdir ".Eng muhimi, bu mas'uliyatli jarayonda maqsad va unga eltar yo'llar aniq belgilab olinib, mamlakat miqyosida ulkan islohotlar amalga oshirildi. O'zgarishlarning barchasi adolat va yana adolat tamoyiliga qat'iy amal qilingan holda, hayotga tatbiq etildi. Islohotlarning ortga qaytmasligiga qat'iy ishonch paydo bo'ldi. Xalqning bunday ishonchi esa har sohada mo'ljalar yaratishga qodir.Bu demokratik o'zgarishlar esa kimlargadir yoqish, maqtanish, turli reytinglarga kirish uchun emas, balki xalqimiz, avvalambor, yosh avlodimizning bugungi hayoti va ertangi istiqbolini o'ylab, milliy manfaatlarimiz yo'lida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, "inson huquq va erkinliklari", "qonun ustuvorligi", "ochiqlik va oshkoralik", "so'z erkinligi", "din va e'tiqod erkinligi", "jamoatchilik nazorati", "gender tenglik", "xususiy mulk daxlsizligi", "iqtisodiy faoliyat erkinligi" singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir.Hozirgi kunda yangicha o'zbekiston yangicha yoshlar nigohida qurish ham boshlandi. Biz buni Sh.Mirziyoyev o'z nutqida Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Mazkur kontseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari " degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon qilib olinganligidan ham xulosa qilsak bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytganda, bugun O'zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida muntazam ravishda muhim tashabbuslar va siyosiy takliflarni ilgari surmoqda. Prezidentimiz amalga oshirayotgan ulug'vor ishlarni nafaqat xalqimiz qo'llab-quvvatlamogda, balki dunyo hamjamiyati ham alohida e'tirof etmoqda. Bu mustaqil O'zbekistondagi yangicha boshqaruv, yangi strategiya va yangi imkoniyatlarning amaldagi yorqin namunasiidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. - T.:O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi// <https://www.lex.uz>
3. 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi// <https://www.lex.uz>